



“EPITELIY TO'QIMASI” MAVZUSINI O'QITISHDA KEYS-STADI TA'LIM USULINI AMALIYOTDA QO'LLASH.

S.Sh. Axmadjonova

Farg'ona davlat universiteti, zoologiya va umumiy biologiya kafedrası dotsenti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarga biologiyani o'qitishda –Keys-stadi metodidan foydalanishning pedagogik va metodik jihatlarining analitik taxlili bayon etilgan bo'lib, unda –Keys-stadi metodining tuzilishi, turli vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqara olish va jamoada ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish usullari tadqiq etiladi.*

Annotatsiya: *В статье представлен аналитический обзор педагогических и методических исследований в области применения метода-кейс-стади в обучения студентов по биологии конструрование кейса, включение студентов в деятельность по анализу кейса, выполнения заданий к кейсу, коллективной работы студентов в аудитории.*

Annotation: *The analytiscal review of pedogogikal and methodologikal researches in the field of application of –Case-Study method in teaching biology, to studentes selected stages of its realization such as case study design, students` involvement info the activity connected with the case analysis, individual student`s extracurricular work connected with analysis of case study, assignments to the case and collective work of students in the audience, is presented.*

Tayanch iboralar: *epitely, keys-stadi, biologik matn, baxs, tekstni tushunish.*

Ключевые слова: *кейс-стади, биологический текст, дискуссия, понимание текста.*

Key vords: *case-study, casse, foreigntext, academic discussion.*

O'qitish jarayonida ta'limning interfaol metodlaridan foydalanish o'quvchilar faolligini oshirishga, bilim olishga ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi. O'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi, jamoa bilan ishlash mahoratini shakllantiradi.

Keys-stadi metodi tarkibida bahs-munozaralarning mavjudligi munozara ishtirokchilarini muloqot normalari va qoidalariga rioya qilishga o'rgatadi.

O'qituvchi o'quv jarayoni davomida yetarlicha emotsional bo'lishi, munozaralarni hal etishi va kelishmovchiliklarga yo'l qo'ymasligi, hamkorlik va raqobat muhitini yaratishi, talabaning shaxsiy huquqlariga rioya etilishini taminlashi kerak. Kase-study usulidan foydalanishda o'qituvchining faoliyati ikki bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich, keys va uni tahlil qilish uchun masalalar yaratish bo'yicha murakkab auditoriyadan tashqari ijodiy ishlardan iborat bo'lib, ilmiy tadqiqot vametodik qismlardan iborat.Talabalarining keysni tahlil qilish va muhokama qilishga



tayyorlash bo'yicha mustaqil ishlarini, shuningdek, uni saralash bo'yicha bo'lib o'tadigan mashg'ulotlarni uslubiy taminlashga alohida etibor berish kerak.

Ikkinchi bosqich, keys muhokama qilinish jarayonida, auditoriyadagi o'qituvchining faoliyatini o'z ichiga oladi, u yerda o'qituvchi kirish va yakuniy so'z bilan ishtirok etadi, muhokama yoki taqdimot tashkil etadi, auditoriyadagi muhitni qo'llab-quvvatlaydi, talabalarning vaqt hissini baholaydi. Keysni tahlil qilish va mazkur tahlilni auditoriyada taqdim etishning samarali shaklini qidiradi. Keys muhokamasi odatda, o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan rag'batlantiruvchi masalalar qo'yilishi bilan boshlanadi.

KEYS –STADI

Keys-stadi inglizcha sase - aniq vaziyat, stadi – ta'lim so'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi.

Keys stadi – pedagogik o'yin tavsifidagi ta'lim usuli bo'lib, u o'zida intellektual yuksalish va nazorat malakasini mujassamlashtiradi. Unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat bo'yicha fikr yuritish taklif qilinib, muammoni yechish jarayonida o'quv materialini ham ifodalanadi.

“EPITELIY TO'QIMASI” MAVZUSI BO'YICHA KEYSLAR.

1-keys. Epiteliyning tuzilishi va vazifasini o'rganish.

Keysda qo'llanilgan metodika (ped.texnologiya): “zig-zag”

1-bosqich - mayda guruhlariga ajratiladilar va spiker (boshliq saylanadi).

2-bosqich - talabalar raqamlanadilar va bir xil raqamlar bir-birini –topadilar||.

3-bosqich - topshiriq beriladi.

I guruh vazifasi:

Masala. Epiteliy to'qimasining umumiy tavsifiga oid ma'lumotlarni qisqa muddat ichida o'qib o'zlashtirish.

II guruh vazifasi:

Masala. Epiteliyning maxsus strukturalariga doir bo'lgan ma'lumotlarni qisqa muddat ichida o'qib o'zlashtirish.

III guruh vazifasi:

Masala. Epiteliy to'qimaning turlariga oid ma'lumotlarni o'qib o'zlashtirish.

IV guruh vazifasi:

Masala. Epiteliy to'qimasi vazifasini ularning turlariga bog'lab o'rganish va o'zlashtirish.

4-bosqich – berilgan topshiriqni o'zlashtirish uchun berilgan vaqt



tugagach, yana o'z joylariga qaytib boradilar, har bir a'zo o'zi o'zlashtirgan materialni oldingi sheriklariga aytib beradi.

5-bosqich – o'qituvchi guruhlariga savol beradi va javoblar baholanadi.

6-bosqich – guruhlar baholari guruhlarining raqamlari ko'rsatilgan

jadvalga qo'yib boriladi. Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir talaba o'z guruhi manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak. Chunki, u o'z guruhiga qaytganda, o'rgangan mavzu bo'yicha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak. Ushbu pedagogik texnologiya yordamida talabalar o'qigan ma'lumotlarini 80-90% o'zlashtiradi. Sababi ushbu jarayonda, o'qiydilar, eshitadilar, ko'radilar, gapirib beradilar va amalda bajaradilar. Insonlar o'qib –o'rganish orqali olgan bilimlarini bilimlarini ua'ni o'qiganlarining taxminan 10% ini, eshitganlarining 20% ini, ko'rganlarining 30% ini, ko'rgan va eshitganlarining 50% ini, o'zi gapirib berganlarining 70% ini va o'zi amalda bajarganlarining 90% ini eslab qolar ekan.

2-keys. Epiteliy to'qimasining klassifikatsiyasi.

Keys bayoni. Epiteliy to'qimasining morfologik tuzilishi,bajaradigan vazifasi, kelib chiqishiga asosan ko'ra morfologik, filogenetk va genetik klassifikatsiyalari mavjud. A.Zavarzin filogenetik, G.Xlopin esa genetic klassifikatsiyaning asochilaridir.

Keys topshirig'i. Berilgan epiteliy turlarini tegishli klassifikatsiyalar bo'yicha belgilang. Masalan: Teri epiteliysi-himoya...

1. Ichak epiteliysi
2. Bir qavatli epiteliy
3. Entodermadan hosil bo'ladigan epiteliy
4. Ko'p qavatli epiteliyga
5. Selomik epiteliy
6. Endoteliy – (mezenxima).
7. Buyrakepiteliysi
8. Ependima – gilyal epiteliy
9. Mezodermadan, hosil bo'ladigan epiteliy

3-keys. Bir qavatli va ko'p qavatli epiteliy turlarining kelib chiqishi.

Keys bayoni. Epiteliy to'qimasi morfologik klassifikatsiyaga asosan bir va ko'p qavatli epiteliy turlariga ajratiladi. Bir qavatli epiteliy hujayralari shakliga ko'ra yassi, kubsimon, prizmasimon (tsilindsimon) kabi turlarga bo'linadi. Ko'p qavatli epiteliy esa yassi muguzlanuvchan, muguzlanmaydigan va o'zgaruvchan turlarga ajratiladi.

Keys savoli. Nima uchun epiteliy to'qimasining bir va ko'p qavatli turlari ajratiladi?

O'qituvchining yechimi.

Hulosa qilib aytganda o'qituvchining dars jarayonidagi roli,talabalar orasida muhokama rivojlanishini prognozlashi va uning borishini tuzatib,muhim masalalarni



qo'yib, muhokama qilishlarini ta'minlashi lozim. Shu bilan birga kase-study usulidan foydalanishni yuqori kurslarda qo'llash maqsadga muvofiq. Buning asosiyligi shundan iborat, yuqori kurs talabalari ilmiy-tadqiqot va metodik qismda ko'proq tajribaga ega. Ular taklif etilgan vaziyatda yo'naltirilgan tahlilini o'tkaza olishlari mumkin. Keys natijalarini hayotga joriy eta olishi mumkin. Talaba muammolarni nazariy jihatdan hal etish bilan birga, taklif etilgan vaziyat uchun qator tavsiyalar ishlab chiqishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. И.Н. Понамарева Общая методика преподавания биологии (учебно-методическая пособия для студентов пед. вузов)– М.: Академия,2003.272стр.
2. S.Ahmadjanova, H. Kamalova "Fanlarni o'rnaganishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni", Jamiyat va innovatsiyalar – Общество i innovatsii Society and innovations Special Issue - 2, №01 (2020) / ISSN 2181-1415.
- 3.S.Sh. Akhmadjonova, O.I. Kayumova, "Biologiya fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish" Jamiyat va innovatsiyalar–Общество i innovatsii - Society and innovations Special Issue - 4 (2021)/ISSN 2181-14153.4.5.
- 4.J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov Biologiya ta'limi texnologiyalari. Metodik qo'llanma «O'qituvchi», T.: 2002.